Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 902

Muzeylar — milliy madaniy merosni asrash va kelajak avlodga yetkazish vositasi

Nargiza Abduqayumovna Akramova*
Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti Muzeyshunoslik: muzey menejmenti va madaniy turizm yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
✉ nargizaabduqayumovna7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada viloyatimizdagi bir necha madaniy meros obyektlarini o‘rganish orqali u yerdan topilgan qadimiy buyumlar, osoriatiqalar va uy ro‘zg‘or anjomlari kabi muzey eksponatiga aylangan topilmalarni asrashdagi muzeylarning o‘rni va ahamiyati xususida so‘z yuritiladi. Yoshlar ta’lim tarbiyasidagi muzeylarning nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishi xususida alohida bayon etiladi. Shuningdek, madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan arxeologik obyektlarni asrash, muzeylarga yoshlarni tashrifini ko‘paytirish bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar

madaniy meros, muzeylar, yoshlar tarbiyasi, arxeologik obyektlar, tarixiy qadamjolar, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya, ko‘chmas mulk.

DOI: 10.5281/zenodo.23281585

Kirish

Madaniy meros obyektlarini o‘rganishda muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi. “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [1;289]. Yurtboshimiz aytayotgan milliy tarixni va milliy ruhni shakllantirishda esa albatta, muzeylarning o‘rni beqiyos. Chunki, “Muzey moddiy va yozma yodgorliklari o‘zbek xalqining ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidagi ma’naviy manbasi, intellektual salohiyati bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz muzeylari barcha fuqarolarning, ayniqsa, talabalarning ta’lim-tarbiya jarayonida katta rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining videoselektor tarzida o‘tkazilgan majlisida O‘zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan. Ushbu konsepsiyaning yaratilishi esa shubhasiz tarix va tarixni o‘zida aks ettiruvchi muzeylar faoliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuni inobatga olib biz bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar asrida milliy qadryatlarimizni qayta kamol toptirish orqali, boy tariximizga, madaniy meros obyektlari bo‘lgan ko‘hna obidalarimizga va ona zaminga yoshlarni qalbida hurmat va sadoqat tuyg‘larini shakllantirmog‘imiz darkor. Turli axborotlar xuruji, mafkuraviy xilma-xilliklar avj olgan zamonda insonni o‘zligini anglashi va o‘z buyuk tarixini bilishigina uni eng to‘g‘ri kelajakka yetaklaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bugungi kunda madaniy meros obyektlarini o‘rganish, asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazishda muzeylarning ahamiyati va vazifasi muhim ekanligi yanada ayon bo‘lmoqda. Bu muassasa yoshlarga nafaqat tarixiy, ilmiy ma’lumotlar, ma’naviy-marifiy ozuqalar beradi, balki estetik zavq va intelektual

ongni rivojlantiradi hamda madaniyatning asosini ham o‘rgatadi. Chunki madaniyat o‘zida oliyjanoblik, hurmat va ehtirom kabi go‘zal xulqlarni jamlaydigan insondagi sifatlardan biridir. Aynan muzeylar yoshlarga tarix bilan birga madaniyatni o‘rgatadi, ongli va tushungan holatda ehtiyotkorlik va hurmat hissini shakllantiradi.

Madaniy merosni o‘rganish, saqlash va tarixni ommaga namoyish etuvchi muzeylarning roli va yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati to‘g‘risida ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xususan, J.Ismoilova, B.Boltaboyev, M.Bekmurodov va M.Rashidova kabi muzeyshunoslik fanini ko‘p yillardan beri o‘rganib, tatbiq etib kelayotgan mutaxassislarning fikrlariga tahsinga loyiq. Avvalo, muzeyshunoslikni fan sifatida o‘rgatish orqali soha rivojini yuksaltirish va zamonaviy kasblar qatorida yurtimizda bugun talab va ehtiyoji kuchli sezilayotgan muzeylar uchun muzeyshunos mutaxasislarni yetkazish borasida malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ilmiy ishlarni aytish joiz. Bundan tashqari, madaniy merosga bo‘lgan yoshlar munosabatini, qiziqishlarini oshirish borasida ham ko‘plab taklif va mulohazalar bildirishgan.

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiy-tahliliy metod asosida madaniy meros obyektlarini o‘rganish shu bilan bir qatorda, topilmalarni asrashdagi muzeylarning o‘rni va ahamiyati o‘rganildi. Ta’kidlash joizki, yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi muzeylarning nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilindi. Tadqiqotda tizimli yondashuv ham qo‘llanilib, madaniy merosni asrashdagi va tarixni o‘rganishdagi muzeylarning vazifasi borasidagi qarashlar uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi. Analiz va sintez metodlari orqali turli ilmiy manbalar hamda adabiy asarlar umumlashtirilib, muammo yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natija va muhokama

Insoniyat tarixini o‘rganish va uni tahlil qilishi, o‘tmish davrlaridagi yashagan sharoitlari, foydalangan mehnat qurollariyu, shug‘illangan mashg‘ulotlari kabi boshqa ko‘plab ma’lumotlarni bilish uchun arxeologik izlanishlar natijasida topilgan qadimgi shaharlarning xarobalari sifatida aniqlangan arxeologik obyektlar, muqaddas qadamjolar o‘rganiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan topilgan o‘rganilgan arxeologik obyekt moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari Milliy ro‘yxatiga kiritiladi [2;2]. Aynan bunday qadamjolar Farg‘ona viloyatida jami 381 ta, shundan 118 ta arxeologiya, 142 ta arxitektura, 88 ta diqqatga sazovor joylar hamda 33 ta monumental san’at asarlaridan iborat madaniy meros obyektlari mavjud. 381 ta obyektdan 131 tasi Respublika ahamiyatidagi, 250 tasi Mahalliy ahamiyatdagi hisoblanadi. Bugungi kunda bu arxeologik obyektlarning ko‘plarida arxeologlar tomonidan qazish va o‘rganish, qayta tiklash hamda saqlash ishlari olib borilmoqda. Ushbu obyektlardan shu kungacha topilgan ko‘plab tarixiy buyumlar Farg‘ona viloyati tarixi va san’ati davlat muzeyi zahirasiga topshirilib kelinadi. Aynan 2023-yilda Farg‘ona viloyati Quvasoy shahridagi Avval qishlog‘ida joylashgan g‘isht zavodidan tuproqqa qo‘shilib kelib qolgan tosh keli topilgan.

Ushbu tosh keli o‘zi bilan birga tarix haqida ko‘p ma’lumotlarni ko‘rsatadi. Tosh keli yarim doira shaklida, kosa yuzasi ishlov berish natijasida oynaday silliq. Keli devorining tashqi tomoni dag‘al, uning kosasining ichki diametri 18 sm, chuqurligi 9 sm, tashqi diametri 75 sm, kosasining suv sig‘imi 0,5 litr bo‘lganligi haqida ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari, qadimgi Farg‘ona yodgorliklarida kelilarning ro‘zg‘orbop kichkina turlari uchraydi. Shuningdek, hududdan antik davrga tegishli kulollik idishini bo‘lagi va bir dona tosh o‘g‘ircha ham topilgan. Bundan bilsa bo‘ladiki, qadimda Farg‘ona vodiysida toshga ishlov berish yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari, bu oddiygina kichkina tosh keli toshdan yasalgan bo‘lsada, lekin aynan shu toshdan yasalganligi bilan qadimgi tarixni yoritishdagi o‘rni juda kattadir. Adabiyotlarda ko‘p hollarda ko‘p xudolik g‘arbning ta’siri, deb hisoblanadi. Hozir biz kelichaga asoslanib Xardod ma’budi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga qadar ham bo‘lganligini aytishimiz mumkin. Faqat ellin madaniyati ta’siri ostida mahalliy ma’budlar terrakota haykalchalarda yoki devoriy suratlarda o‘z aksini topdi. Qadimgi Farg‘ona madaniyati uning hududidagi markazlashgan shaharlar to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz yanada boyidi [2;35].

Qadimgi Farg‘ona haqida so‘z ketganda biz albatta Davan ya’ni Farg‘ona vodiysidagi qadimgi buyuk va qudratli davlatni yodga olamiz. Tarix va tarixchilar guvohlik bergan o‘sha mashhur samoviy otlari ko‘z oldimizda gavdalanadi. Davan taxminan mill.avv. III asrdan to milodiy II yoki III asrgacha mavjud bo‘lgan va

mill.avv. II-I asrlarda qudratli davlat uyushmasiga aylangan[3;128].

Records of the Grand Historian va Book of Han kitoblari Davanni 70 ta devor bilan o‘ralgan shaharlarda yashovchi bir necha yuz ming kishidan iborat deb tasvirlaydi. Dovonda 70 dan ortiq katta-kichik shaharlar bo‘lsa-da, ular orasidan faqatgina uchtasining nomi qayd etilgan — Ershi, Yuchen va Guyshuan[4;198].

2 ming yildan ziyod vaqt avval “Mingtepa” Farg‘ona vodiysidagi eng yirik, rivojlangan shahar bo‘lgan. Tarixiy manbalar va arxeolog olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, “Mingtepa” arxeologik yodgorligi qadimda yuqori darajada taraqqiy etgan Dovon (aksariyat manbalarda Dayuan deb ataladi) davlatining poytaxti Ershi shahrining xarobalari deb hisoblanadi. Hozirgi kunda Mingtepa yodgorligi ichki va tashqi shahar qismlaridan iborat bo‘lib, ichki shahar 41,2 gektar, tashqi shahar qismi esa 320 gektardan ortiq maydonni egallagan. Aynan ushbu yodgorlik o‘tgan asrning 40-50 yillaridan beri o‘rganilib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu kabi yodgorliklardan topilgan osori-atiqalar va noyob topilmalar esa muzeylarimiz orqali umri boqiylashmoqda. Muzey tashrif buyuruvchilariga ana shu tarixning guvoxlari moziydan so‘zlab beradi.

Birgina yuqorida aytilgan tosh keli hamda “Mingtepa” singari madaniy yodgorliklardan topilgan osori-atiqalar misolida ko‘radigan bo‘lsak, ushbu topilmalar agar muzeylarga topshirilmasa muzeylarda saqlanmasa, muzey ilmiy xodimlari tomonidan o‘rganilmasa, zarur bo‘lganda restavratsiya, konservatsiya ishlari o‘z vaqtida qilinmasa necha ming yilliklarni o‘zida saqlayotgan bu topilmalarni kelajak yoshlariga qanday ko‘rsatish mumkin. Aynan qanday qilib Farg‘ona vodiysida qadimda toshga ishlov berish san’ati rivojlanganligini va ro‘zg‘or buyumlari toshdan yasalganligini bilish mumkin bo‘lar edi.

Muzey bu madaniy-tarixiy, tabiy-ilmiy qadriyatlarni aniqlash, muzey predmetlari vositasida axborotni to’plash va tarqatish uchun mo’ljallangan tarixiy belgilangan, ko’pqirrali ijtimoiy axborot muassasadir. [5;10,11]. Shuningdek, “Muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlami avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish” bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri bo’lmoqda [5;30]. Shu jihatdan, muzeylarning roli nafaqat madaniy, balki ma’naviy va ta’limiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ‘ib qilish maqsadida, “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilingani ayni muddaodir.

Bu qaror aynan muzeylarning ahamiyati bugungi kunda har qachongidanda oshgani dolzablashganligidan dalolat beradi. Aynan tarixiy madaniy merosni asrab-avaylashda va ularni kelgusi avlodga yetkazishdagi vazifasi g‘oyat muhimdir. O‘z tarixini o‘rganish va o‘z tarixidan faxr-iftixor vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muzeylarning hissasi katta. Bugungi kunda muzeylar, asosan, yoshlarning qiziqishi va talabini qondiruvchi, tarix bilan yuzma-yuz turib erkin muloqotga kirishishga imkon beruvchi mo‘jizaviy-ma’rifiy maskanga aylanib bormoqda [6;19]. Albatta, bu muassasa yoshlarga nafaqat tarixiy, ilmiy ma’lumotlar, ma’naviy-marifiy ozuqalar beradi, balki estetik zavq va intelektual ongni rivojlantiradi hamda madaniyatning asosini ham o‘rgatadi. Chunki madaniyat o‘zida oliyjanoblik, hurmat va ehtirom kabi go‘zal xulqlarni jamlaydigan insondagi sifatlardan biridir. Aynan muzeylar yoshlarga tarix bilan birga madaniyatni o‘rgatadi, ongli va tushungan holatda ehtiyotkorlik va hurmat qilish ko‘nikmalarini hosil qilishda yordam beradi. Afsuski bugungi kunda yoshlarimiz o‘zi yashab turgan viloyatidagi, yoki tumanidagi muzeyga hatto bormaganini ko‘p eshitamiz. Muzeyda nimalar saqlanayotganini, hattoki muzeyning nomini ham bilishmasligi ayni haqiqat. Nafaqat muzey balki, qishloq, tuman, shahar yoki viloyatidagi madaniy meros obyektlari haqida deyarli umuman ma’lumotga ega emas. Ularni shunchaki aziz joy, muqaddas qadamjolar degan oddiy tushuncha bilan cheklanib qolishlari achinarli albatta. O‘z qishlog‘idagi qadamjoning asl tarixi va qadimiyligi nuqtayi nazardan o‘rganmasa, unda qanday qilib tarixga hurmat, faxrlanish va asrab-avaylash hissi shakllanadi. Eng avvalo, yoshlarimizni o‘zi yashayotgan joy hududidagi qadimgi shaharlarning xarobalari sifatida aniqlangan arxeologik obyektlar, muqaddas qadamjolarga tashrifini ko‘paytirish, qiziqishlarini orttirish va o‘rganishga, hurmat qilishga undovchi loyihalar, startaplar va yosh valantyorlar guruhini shakllantirish zarur deb o‘ylayman. Axborotlarning turli xurujlaridan to‘g‘ri yo‘lni topa olish qiyin bo‘lgan hozirgi vaziyatlarda ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi har xil zararli ma’lumotlardan asrash uchun sog‘lom immunitet, sog‘lom fikr va sog‘lom qarashlarni yoshlar ongida shakllantirish zarur. Buni esa o‘z tarixini, o‘zligini bilib anglash mumkin.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bugungi kundagi mavjud ko‘p madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan arxeologik obyektlarni saqlab qolishdagi ishlari yetarli darajada olib borilmayapti. Ming yilliklarni ortda qoldirib hozirgi kungacha yetib kelgan ko‘plab arxeologik obyektlar tabiiy hodisalar, yomg‘ir, qor kabi tabiat zarbalaridan va hududning zax suvli ekanligi kabi bir qancha sabablar bilan holati nurab bormoqda. Bu obyektlarni imkon qadar hozirgi bor ko‘rinishini ham yo‘qotmasdan saqlab qolish va qayta tiklash ishlarini jadallashtirish zarur deb o‘ylayman. Negaki bizni buyuk kelajakka buyuk tarix olib chiqadi.

Uchinchi Renassans haqida so‘z borar ekan uni albatta yoshlarimiz timsolida ko‘ramiz. Aynan ana shu yoshlarni madaniy meros obyektlarini bilishlari, o‘rganishlari uchun keng ko‘lamli rejali ishlarni yo‘lga qo‘yish har qachongidanda muhim. Sababi, bugungi dunyo davlatlari tarixni varaqlab, qayta va qayta izlanishlar bilan o‘rganib “bizni yutug‘imiz, bizni tariximiz, bizni buyuk o‘tmishimiz, bizda ilk qo‘llanilgan, kashf etilgan” degan so‘zni aytish uchun faktlar axtarib ilmiy izlanishlar qilayotgan bir pallada biz tayyor mavjud asrlar qarida yotgan tariximizga bemalolchilik bilan qarashimiz noto‘g‘ri bo‘ladi albatta. Bundan tashqari, muzeylarga tashrif buyuruvchilar sonini oshirish maqsadida yangicha marketingni ishlab chiqish juda zarur ayni damda.

Hozir yoshlarni shunchaki, oddiy reklama yoki banner, afishalari bilan jalb qilib bo‘lmaydi. Ularga yangilik, yangicha format va texnologiyalar aralashuvi bilan zamonaviy taklif berishni yo‘lga qo‘yish lozim. Bunda avvalo, bizning muzeylarimizning binosini qayta rekonstruksiya qilish zarur deb o‘ylayman. Sababi, muzeyning tashqi ko‘rinishi hayratlanarli va o‘zgacha arxitektura dizayni bilan ajralib turishi tashrif uchun ilk sabab bo‘la oladi. Muzeylar atrofida muzeyga kirishga qiziqishni orttirish maqsadida chet el muzeylaridagi mashhur va go‘zal eksponatlar yoki ekspozitsiyalarni tashkil etib qo‘yish ham tashriflarni ko‘payishiga, qiziqish ortishiga sabab bo‘ladi deb hisoblayman. Bu fikrlarni barchasini jamlaydigan bo‘lsak madaniy meros, yoshlar tarbiyasi va muzeylar o‘zaro uzilmas zanjirni tashkil etishini ko‘ramiz. Madaniy merosni o‘rgangan va muzeylardan o‘z tarixini ko‘rib anglagan yoshlar albatta ta’lim tarbiyasi, yuksak ma’naviyati va kuchli salohiyati bilan buyuk davlatimizning ertasiga munosib hissa qo‘sha oladi.

“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, albatta, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo‘ladi”. [7;482]. Yurtboshimiz aytayotgan havas qilsa arziydigan buyuk tariximizni va milliy ruhni shakllantirishda esa albatta, muzeylarning o‘rni beqiyos. Chunki, muzey moddiy va yozma yodgorliklari o‘zbek xalqining ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidagi ma’naviy manbasi, intellektual salohiyati bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz muzeylari barcha fuqarolarning, ayniqsa, talabalarning ta’lim-tarbiya jarayonida katta rol o‘ynaydi. Muzey ekspozitsiyalari o‘z Vataniga fidokorona muhabbat, insoniy odob-axloq va vatanparvarlikning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi[8;4].”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 289.
2. O‘rta Osiyo arxeologiyasining dolzarb muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 35.
3. A.Xo‘jayev. Farg‘ona tarixiga oid ma‘lumotlar. Farg‘ona, 2013 – B.128.
4. E.Rtvladze, D.Alimova. O'zbek davlatchiligi tarixi. Akademnashr 2021 –B.98.
5. Boltaboyev B. Muzeyshunoslik fanidan uslubiy-qo‘llanma. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2016. – B. 10-11.
6. Boltaboyev B. Muzeyshunoslik fanidan uslubiy-qo‘llanma. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2016. – B. 30.
7. Ismoilova J. Muzey pedagogikasi: tajriba va izlanishlar. – Moziydan sado ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal – Toshkent, 2014. 1-son. – B. 19.
8. Mirziyayev Sh.M. – Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 482.
9. Rahmatillayev H. Muzeyshunoslik // o‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: Classik, 2023. – B. 4.